

KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARIDA SUXANDONLIK MASALASI TAHLILI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15711186>

Salimov Ilhom Ergash o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
tayanch doktoranti

Elektron pochta: ilhomsalimov72@gmail.com

Tel: +998943286959

Annotatsiya: Mazkur maqolada sharq adabiyotida didaktikaning o'rni, sharq didaktik adabiyotining o'ziga xos jihatlari, "Qobusnom" asarning mazmun-mohiyati haqida so'z yuritilgan bo'lib, asarning suxandonlik haqidagi yettinchi bobi batafsil tahlil qilingan. Suxandonlikning o'ziga xos jihatlari, so'z aytmoqning foydali va zararli tomonlari sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: sharq, didaktika, suxandonlik, rostgo'ylik, yolg'on, kamtarlik, shirinsuxanlik.

Abstract: This article discusses the role of didactics in oriental literature, the specific aspects of oriental didactic literature, the content and essence of the work "Qobusnom", and the seventh chapter of the work on eloquence is analyzed in detail. The specific aspects of eloquence, the useful and harmful aspects of speaking are listed.

Keywords: east, didactics, eloquence, honesty, lying, modesty, eloquence.

Sharq mamlakatlarida didaktik adabiyot salmoqli o'rin egallaydi. Farzand tarbiyasi har doim muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy, Nosiriddin Rabg'uziy, Alisher Navoiy kabilarning qatorida Kaykovusni ham alohida ta'kidlab o'tish kerak. Kaykovus podsho xonardonidan bo'lib, umrining oxirlarida hayotiy tajribasini bir kitobga jamlab, shu kitob orqali o'g'li Gilonshohga nasihatlar qiladi va bu kitobni "Qobusnom" deb ataydi. "Qobusnom" yaratilganidan beri turfa tillarga tarjima qilib kelinadi. O'zbek tiliga ilk bor Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan. O'tgan asrning oltmishinchchi yillarida Subutoy Dolimov "Qobusnom"ni qayta tarjima qilib, kitob holida nashr etilishi uchun jonbozlik ko'rsatadi. Subutoy Dolimov faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak, uning ikki sohada, ya'ni o'zbek adabiyoti tarixi va adabiyot o'qitish metodikasida ko'p ish qilganini ko'ramiz.

Kaykovus "Qobusnom" asarining oltinchi bobida hunar egallahning ahamiyati haqida so'z yuritadi. U hunarsiz kishini soyasiz butaga o'xshatadi. Kishi qanchalar oliy nasab bo'lsa ham, unga qanchalar ulug'vor ism qo'yilsa ham hunarsiz el ichida obro' topolmaydi. Hunar isi kelmagan so'zni aytma, deydi Kaykovus. Demak, muallif so'z aytmoqni ham hunar sifatida ko'rmoqda. Ma'lumki, hunar egallah osor emas. Biror hunarda kamolga yetish uchun ustoz

topiladi, sabr-toqat bilan undan hunar sirlari o'rganiladi, mashaqqat chekiladi. Barcha hunardan ko'ra so'z hunari yaxshiroqdir, deydi muallif. Til tarbiyasi o'zimizga bog'liq, uni yaxshi gapga o'rgatsak yaxshi gapni, yomon gapga o'rgatsak yomon gapni so'zlaydi. Yaxshilik qilsang yaxshilik qaytganiday, yaxshi gap eshitish uchun o'zimiz ham yaxshi gap aytishimiz kerak. Ammo nonko'r kishiga yaxshilik qilganning foydasi yo'q, so'zimizga qulq solmaydigan kishiga so'z aytmoq ham shunday. Qulq solmagan kishiga va so'ralmagan joyda nasihat qilishdan tiyilish kerak. Shuning bilan birga, yaxshi so'z aytishning o'zi kifoya qilmaydi, yaxshi so'zni ham o'z o'rnida ishlatish kerak. Noo'rin joyda aytilgan yaxshi so'z qulqqa yomon eshitiladi.

Kaykovus o'g'liga yaxshi kishilar bilan hamsuhbat bo'lismi tayinlaydi. Ayniqsa, suxandon kishilarni alohida hurmat-izzat qil, deb uqtiradi. Asarning yettinchi bobida suxandonlik ila baland martabali bo'lism haqida so'z yuritadi.

Suxandonlik shunday kasbki, uni mukammal egallagan odam yolg'oniga ham ishontirishi mumkin. Misol uchun, sofistlarning ko'pi mohir notiq bo'lib, ular bahsda g'alaba qilish uchun yolg'ondan ham qaytishmasdi. Kaykovus o'g'lini mana shundan qaytaradi, suxango'y bo'l, biroq durug'go'y, ya'ni yolg'onchi bo'lma deydi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, garchi bu didaktik adabiyot bo'lsa-da Kaykovus realist edi. U farzandidan komillikni talab qilmasdi, chunki bu imkonsiz ekanligini yaxshi bilardi. Kishi qachondir baribir yolg'on gapirishga majbur bo'ladi. Zero u davrlarda kishining bir so'zi o'zining, yaqinlarining hayot-mamotini hal qilishi mumkin edi. Shu bois Kaykovus rostgo'ylik bilan nom qozonish kerakligini aytadi, mana shunda zarurat tug'ilganida kishining yolg'oniga ham ishonishadi. Mayda-chuyda masalalarda yolg'on so'zlagan odamning muhim masaladagi rost so'ziga ishonmay qolishlari ehtimoli yuqori. Hayoti mobaynida imkon qadar yolg'on so'z aytishdan qochgan odam esa o'rni kelganda yolg'oniga ham barchani ishontira oladi, chunki rostgo'ylik bilan nom qozongan odamdan hech kim gumonsiramaydi.

Shuningdek, yolg'onga o'xshagan rostni aytma, deydi. Garchi bu haqiqat bo'lsa ham, agarda aql bovar qilmasga o'xshasa, odamlarni ishontitish uchun dalil-isbot talab qilsa bunday so'zni aytmagan ma'qul. Yolg'on gapirib yolg'onchiga chiqish balki alam qilmas, biroq rost gapira turib yolg'onchiga chiqish odamga alam qiladi. Shunday ekan, yolg'onga o'xshagan rostni aytishdan tiyilish kerak.

Odamning ham, so'zning ham to'rt navi bor, deydi Kaykovus. Birinchisi, biladi va bilishini biladi, bu olim, unga ergashish kerak. Ikkinchisi, bilmaydi va bilmasligini biladi, bu qobil, unga o'rgatish kerak. Uchinchisi, biladi va bilishini bilmaydi, bu g'ofil, uni uyg'otish kerak. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmasligini ham bilmaydi, bu johil, undan qochish kerak. Bu odamlarning to'rt navi. Endi so'zning to'rt naviga to'xtalamiz. Birinchisi, bilinmaydigan va aytilmaydigan. Ikkinchisi, bilinadigan va aytildigan. Uchinchisi, bilinadiyu, bilish shart emas, aytsa bo'ladi. To'rtinchisi, bilinadi, lekin aytilmaydi. Bilinadigan va aytilmaydigan so'z kishining boshiga ko'p balo olib kelishi mumkin. So'zlarning eng a'losi bilinadigan va aytildiganidir. Har bir so'zning ikki yuzi bor, yuz bu uning

namoyon bo'lish shakli. Odamlarga gapirganda so'zning yaxshi yuzini ko'rsatish kerak. Shunda kishi so'zi ila baland martabaga erishadi. Horun ar-Rashid tush ko'radi. Tushining ta'birini biridan so'raydi. "Barcha qarindoshlaring o'lib, yolg'iz o'zing qolasan" deydi birinchi ta'birchi. Noxush xabardan darg'azab bo'lган xalifa ta'birchini kaltaklashni buyuradi va boshqa birini chaqirtiradi. "Sen barcha qarindoshlaringdan uzoq umr ko'rasan" deydi u. "Aqlli kishi so'zni shundoq yetkazadi" deydi Horun ar-Rashid va ta'birchini mukofotlaydi.

Kishi chiroylisoz zlash bilan birga, aytgan so'zining ma'nosini ham chuqur bilishi kerak. Ma'noni bilmay turib so'z aytgan kishi to'tiqushga o'xshaydi. Mohir notiq neki desa xalqqa ma'qul bo'ladi. Kerakli so'zni o'rnida aytish kerak, vaqtini zoye, donishmandlikni uvol qilmaslik kerak. Bilgan sohada gapirish, bilmagan sohada jim turish kerak.

Ko'pchilikning oldida bir kishining qulog'iga so'z aytmaslik kerak. Bu yaxshi so'z bo'lsa ham boshqalarda yomon gumon paydo qiladi. Ko'pchilik oldida shunday so'z aytish kerakki, yana kimdir o'z-o'zidan bunga guvohlik bersin. Sovuq so'zdan qochish kerak, sovuq so'z urug'ga o'xshaydi, undan dushmanlik o'sib chiqadi. So'z aytganda, tinglovchining darajasini hisobga olish kerak. Olimga olimday, omiga omiday so'z aytish kerak. Olimga aytildigan so'zni omiga aytsangiz yolg'onchiga va hatto osiyga chiqishingiz mumkin. Xoslar tushunadigan so'z avomga og'irlilik qiladi, ming bir dalil bilan ham ularni ishontirib bo'lmaydi.

Kishi gapirganda doim ilmini aslidagidan kamroq qilib ko'rsatgani ma'qul. Ilmini kamroq ko'rsatib, bir yangi gap aytса kishi dono va kamtar bo'lib chiqadi. O'zini bilag'on ko'rsatib biror narsani bilmay qolsa kishi nodon va manmanga chiqadi.

Kishi o'zini ta'rifu tavsif qilishdan qochishi kerak. Odam o'zi haqida gapirsa yo yomonlashi, yo maqtashi kerak. Yomonlasa sirini xalqqa ochgan bo'ladi, maqtasa manmanga chiqadi. O'zini maqtagan odamning gapi jiddiy olinmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Kaykovus og'zimizdan chiqadigan har bir so'zga diqqat qilishimiz kerakligini aytadi. Bugun o'ylamay aytgan, ahamiyatsiz tuyulgan bir so'zimiz aylanib kelib boshimizga balo bo'lishi hech gap emas. Kishining martabasini uning so'zi belgilaydi. "Qobusnoma" asari bu borada munosib qo'llanma vazifasini bajara oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kaykovus "Qobusnoma". – "O'qituvchi" nashriyot matbaa ijodiy uyi; Toshkent 2019
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – O'zbeksiton Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti 2000-2005